Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyat va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyafzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'rilishi lozim" [1].

Mamlakatimiz sanoat tarmog'ini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini o'stirish, ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga erishish mumkin.



O'zbekiston Respublikasida sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo'ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan oqilona tashkil etishni ta'minlaydigan aniq davlat dasturlarini yanada ko'paytirish zarurati, mintaqalar sanoat ishlab chiqarishi darajasi o'rtasidagi tafovutning yuqoriligi va uni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish zarurati ushbu mavzuning yo'nalishi va dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rningining nihoyat darajada kengligi doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan, A.Abdurhamidov, U.Muxitdinov, A.A. Ortikov, X. Ishbutayeva, Sh. Nizomova, E.X. Maxmudov, X.D. Xujaqulov va M. Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan. Xususan, A. Ortiqov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga, M.P. Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga, E.X. Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul-kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga, bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi mintaqalari ehtiyojlariga muvofiq keluvchi, ular manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlovchi, mintaqalarda mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga oluvchi sanoat tarmog'ining oqilona hududiy tarkibini shakllantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Mintaqalar sanoatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish jarayoniga davlat quyidagi dastak va vositalar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- davlat mablag'larini jalb etgan holda sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarini qurish;
- xususiy investorlar sarf-xarajatlarini kamaytirish uchun budjetdan kapital qo'yilmalarning bir qismini ajratish;
- sanoat korxonalarini qurishda ishtirok etish;
- sanoat korxonalarini qurishga imtiyozli kreditlar ajratish;
- soliq imtiyozlarini joriy etish;
- davlat mablag'lari hisobidan yangi sanoat korxonalari uchun kadrlar tayyorlash;
- iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarda sanoat korxonalari qurilganligi uchun imtiyozlar, mukofotlar berish;
- ekologik vaziyatdan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari qurilishini taqiqlash yoki cheklash va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ^[2] asosida sanoat korxonalariga imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Jumladan:

- 2020-yil 1-yanvariga qadar hisobot davri natijalari bo'yicha yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo'lmagan eksport ulushiga ega bo'lgan korxonalar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etiladi. Imtiyoz 202-yil 1-yanvardan kuchga kiradi;
- to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo'ynachilik sohalari korxonalarining foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi 7 yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Imtiyoz to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo'ynachilik sohalari uchun 2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi;



- chorva mollarini so'yish bo'yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan majmualarni ishga tushirayotgan tashkilotlar va terini qayta ishlovchi korxonalar 2020-yil 1-yanvarga qadar yer solig'i to'lashdan ozod etildi. Imtiyoz 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi;
- 2020-yil 1-yanvaridan boshlab "O'zto'qimachilik sanoati" va "O'zcharmsanoat" uyushmalarining xorijiy konsultantlari, shuningdek, to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo'ynachilik sohalari korxonalarida mehnat faoliyatini yuritayotgan xorijiy mutaxassislar O'zbekistondagi daromad manbalari bo'yicha JSHDSni uning belgilangan stavkasidan 50 % miqdorida to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi statistikasi amaliyotida sanoatning tarmoq tuzilishi 2016-yilga qadar Xalq xo'jaligi tarmoqlarining umumdavlat Tasniflagichi (XXTUT) asosida yirik guruhlar bo'yicha taqdim etilgan. 2016-yildan xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT)ga o'tildi. IFUTda faoliyat turlarini guruhlashtirish yakuniy mahsulotlar, ishlab chiqarish omillari va jarayonlarining bir xilligidan kelib chiqib amalga oshiriladi, ya'ni bir xo'jalik subyekti turli sinflarga va hatto seksiyalarga taalluqli faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Respublikamizda IFUT yangi strukturasi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlar va tarmoqlar ulushi quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

1-jadval: Sanoat tarmoqlarining tarkibiy tuzilishi

Yiriklashtirilgan seksiyalar bo'yicha sanoat tarmoqlari	Yillar					
	2018		2019		2020	
Sanoat tarmog'ida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi (B, C, D, E) - jami, mlrd. so'm	95 803,9	100%	136 103,1	100%	152 728,0	100%
Shu jumladan:						
B. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	20 057,0	20,94%	31 337,7	23,02%	23 139,8	15,15%
C. Qayta ishlash sanoati	68 971,8	71,99%	94 749,7	69,62%	116 839,3	76,50%
D. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	5 869,9	6,13%	9 055,0	6,65%	11 768,7	7,71%
E. Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	905,2	0,94%	960,7	0,71%	980,2	0,64%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, respublikamizda 2018-yilda jami sanoatdagi qo'shilgan qiymatning 20,94 foizi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (V)da yaratilgan bo'lsa, 71,99 foizi qayta ishlash sanoati (S)ga to'g'ri kelgan, 2020-yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 15,15 va 76,5 foizni tashkil etgan.

2018–2020-yillarda milliy sanoat ishlab chiqarishi tarkibida deyarli barcha sohalarda pandemiya sharoiti tufayli sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tushib ketgan va bu yo'qotishni birgina metallurgiya hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati qoplab bergan, ya'ni 2020 yilga kelib ushbu sanoat tarmog'i jami qayta ishlash sanoatining 40,5 foizini tashkil qilgan.

Mana shunday murakkab vaziyatda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sanoat mahsulotlari hajmi o'sishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rnida aytish joizki, sanoat mahsulotlari assortimenti va turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, sohani modernizatsiya qilish, industriya tizimiga yangi texnika va texnologiyalar joriy etish, milliy sanoat ishlab chiqarishini samarali boshqarish uchun tizimga horijiy menejmentni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash va zarur hollarda chet elda faoliyat yuritayotgan mahalliy mutaxassislarni jalb etish, milliy industriyaga yanada ko'proq investitsiyalarni jalb qilish, mavjud ishlab chiqarish vositalari quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish, tizimda elektr, issiqlik energiyasi va uglevodorod resurslari tejamkorligiga erishish yaqin istiqbolda respublika sanoat tarkibida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda milliy industriyada konsentratsiyalashuvni pasaytirish hamda sanoat ishlab chiqarishi tarmog'ida samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi mazkur sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etmoqda.



O'zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan 2020-yilda 367,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga (83%) to'g'ri kelgan.

YAIMni oshishida sanoat mahsulotlarining o'rni kattadir. Sanoat tarmog'ini rivojlantirishda so'nggi yillarda: "Elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik buyumlari, qog'oz sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini (keyingi o'rinlarda – mahalliy sanoat) jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizimni yaratish, shuningdek, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish"ga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi-kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va shu bilan bir qatorda aholi farovonligini muntazam oshirib borish hisoblanadi. YAIMning va aholi sonining o'sish sur'atini quyidagi rasm orqali ko'rishimiz mumkin.

2000–2020-yillarda mamlakatimizda yaratilgan YAIMning o'sish sur'ati, aholining o'sish sur'atiga nisbatan bir necha barobar yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Faqatgina 2020-yilda YAIMning o'sish sur'ati, aholining o'sish sur'atidan 0,2 foiz bandga kamaygan. Bu davrda butun dunyoda ro'y berayotgan koronavirus infeksiyasi tarqalishi ta'siri mamlakatimiz YAIMning o'sish sur'ati kamayishiga olib kelgan.

2-jadval: O'zbekiston sanoat tarmog'ida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi dinamikasi (2020-yil baholarida)*

Yillar	Sanoatning qo'shilgan qiymati (mlrd. so'm)		Sanoat qo'shilgan qiymatining o'sishi, %		O'rtacha yillik doimiy aholi soni			Aholi jon boshiga sanoat qo'shilgan qiymati	
	joriy baholarda	2020-y. baholarida	2000-y. 100%	oldingi yilga nisbatan	mln. kishi	o'sish sur'ati, %		ming so'm	2000-y. 100%
						oldingi yilga nisbatan	2000-y. 100%		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2000	462,4	55889,2	100,0	-	24,7	-	100,0	2262,7	100,0
2001	696,2	57387,8	102,7	102,7	25	101,2	101,2	2295,5	101,4
2002	1079,3	59339,0	106,2	103,4	25,3	101,2	102,4	2345,4	103,7
2003	1553,3	61119,1	109,4	103,0	25,6	101,2	103,6	2387,5	105,5
2004	2146,7	65001,4	116,3	106,4	25,9	101,2	104,9	2509,7	110,9
2005	3370,9	67502,0	120,8	103,8	26,2	101,2	106,1	2576,4	113,9
2006	4597,2	71720,2	128,3	106,2	26,5	101,1	107,3	2706,4	119,6
2007	5906,5	76460,9	136,8	106,6	26,9	101,5	108,9	2842,4	125,6
2008	9148,2	81660,3	146,1	106,8	27,3	101,5	110,5	2991,2	132,2
2009	11651,1	85008,4	152,1	104,1	27,8	101,8	112,6	3057,9	135,1
2010	12997,3	90055,1	161,1	105,9	28,6	102,9	115,8	3148,8	139,2
2011	15951,8	93994,3	168,2	104,4	29,3	102,4	118,6	3208,0	141,8
2012	20462,7	99372,7	177,8	105,7	29,8	101,7	120,6	3334,7	147,4
2013	25388,7	106821,9	191,1	107,5	30	100,7	121,5	3560,7	157,4
2014	32136,7	111626,1	199,7	104,5	30,8	102,7	124,7	3624,2	160,2
2015	38466,6	117560,2	210,3	105,3	31,3	101,6	126,7	3755,9	166,0
2016	45397,9	123965,5	221,8	105,4	31,8	101,6	128,7	3898,3	172,3
2017	59570,4	130413,5	233,3	105,2	32,4	101,9	131,2	4025,1	177,9
2018	95803,8	144555,1	258,6	110,8	32,96	101,7	133,4	4385,8	193,8
2019	136103,1	151730,5	271,5	105,0	33,6	101,9	136,0	4515,8	199,6
2020	152728,0	152728,0	273,3	100,7	34,2	101,8	138,5	4465,7	197,4

* Manba: www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-ktoblari.

2000–2020-yillarda sanoatda qo'shilgan qiymat dinamikasini statistik tahlil qiladigan bo'lsak, 2000-yilga nisbatan 2020-yilda 2,73 martaga oshgan. Ushbu davrda mamlakatimizning o'rtacha aholi soni 1,38 barobarga ko'payib, aholi jon boshiga sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymat esa qariyb 2 martaga oshgan. Yuqoridagi statistik tahlillardan ko'rinib taribdiki sanoat mahsulotlarini yetishtirish 2000–2019-yillarda barqaror rivojlanganligidan dalolat beradi (2-jadval).



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sanoat tarmog'ining ahamiyati kattadir. Buni tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatida sanoatning ulushi 27,4 foizni tashkil etganligida ko'rishimiz mumkin.

Respublikada sanoat tarmog'ini yanada takomillashtirish uchun, avvalo, quyidagi yo'nalishlardagi strategik vazifalarni amalga oshirish zarur:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- bugungi kunda to'xtab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash;
- korxonalarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- ma'naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalarda sifatsiz va "ombor uchun" mahsulotlar ishlab chiqarishni oldini olish maqsadida yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish;
- yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish;
- sanoat tarmog'i rivojlanishida kichik korxonalar sonini yanada ko'paytirish va ularni tashkil etish chora-tadbirlarini rag'batlantirish;
- mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tumanlar (shaharlar) salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish "drayverlari" bo'lgan tarmoqlarni aniqlash;
- tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, korxonalarni global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo'lga qo'yish;
- sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan xususiy va xorijiy investitsiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- "qo'shimcha qiymat zanjirlari"ni kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- kichik sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va faoliyatini muvofiqlashtirish;
- zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalari uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish;
- tarmoqlar va hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida tartibga solish muhiti va standartlarni takomillashtirish.

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha olib borilayotgan ishlarning eng muhim sharti hisoblanadi.

Darhaqiqat, o'tgan davrda iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida jadal rivojlanish jarayoniga, turmushimiz tobora yaxshilanib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarish korxonalari modernizatsiya qilish borasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar ichki bozorni o'zimizda tayyorlangan mahsulotlar bilan ta'minlash barobarida, ularni eksport qilish imkoniyatini ham kengaytirib bormoqda.

Pirovardida bugungi kunga kelib, mahalliyashtirish jarayoni, tom ma'noda, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, mavjud resurslardan unumli foydalanish, ish o'rinlarini yaratish, asosiysi, korxonalarning tashqi ta'sirlarga bog'liqligini kamaytiruvchi tizim sifatida takomillashtirish.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini o'stirish, ishlab chiqarish korxonalari texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga erishish mumkin.



2020-yilda 2019-yil bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 %ni (2019-yilda – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 22,4 % (25,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 40,1 % (36,6 %) va quyi texnologiyali 35,6 % (36,5 %)ni tashkil etdi.

Real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim yo'nalishlardan yana biri sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonidir.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarimtayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni hisoblanadi.

Sanoat tarmog'ini yuqorida keltirib o'tilgan, o'ziga xos afzalliklaridan tashqari ijtimoiy mehnat taqsimotini rag'batlantirish, bozor raqobatini rivojlantirish kabi bir qator ustuvor taraflari ham mavjud.

Respublikamizda, sanoat rivojlanishi va iqtisodiyotning eng yetakchi tarmog'iga aylanishi uchun barcha resurs va zaxiralarimiz yetarli. Bu borada bugungi kunda ildam sur'atlar bilan o'sishda davom etayotgan yoqilg'i-energetika, kimyo sanoati, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va qog'oz-sellyuloza sanoati hamda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik kabi o'nlab tarmoq va yuzlab sanoat sohalari mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi o'rni yanada mustahkamlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng agrar davlatdan erkin industrial-agrar rivojlangan davlatga o'tish borasida amalga oshirilgan iqtisodiy va tarkibiy siyosat to'la o'zini oqladi.

XULOSA

Sanoat tarmog'ining rivojlanishi natijalari tahlili ko'plab ishlab chiqarish korxonalarida bozor sharoitiga moslashilganligi va davlat ko'magi yordamida yuqori samarali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sanoatda kuzatilayotgan o'sish omillari va manbalarining beqaror xarakterini ko'rsatuvchi muammolar yuzaga keldi. Ular milliy tovarlarning jahon bozoriga chiqishiga to'sqinlik qilmoqda va mamlakatning JSTga a'zo bo'lish jarayonida jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yuzaga kelgan muammolar sanoat ishlab chiqarishining sifat ko'rsatkichlarini oshirishni talab etadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuini shakllantirishdan iborat.

Umumar olganda, ushbu vazifalarning amalga oshirilishi respublikamizda iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishiga, sanoat tarmog'ining rivojlanishiga imkon yaratadi va bundan keyingi davrlarda ham barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-sonli qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4453-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 29.12.2018. 271-272 (7229-7230)-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr. 275-276 (7746-7747)-son.
5. Ortiqov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 236 b.
6. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 454 b.
7. www.stat.uz. – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
8. Khujamurodov, A., & Jumanova, Z. (2020). Methodological Aspects of the Bank's Information Security. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.